# VOLEYBOLDA TEXNIK-TAKTIK MAHORATNI BAHOLASH

**B.Aminov -QDPI dotsent.v.b..**

**Annotatsiya**

Shug‘ullanuvchilarning texnik-taktik tayyorgarligi ўyinning asosiy harakatlarini ўzlashtirganlik darajasi bilan belgilanadi. Yuqoridan va pastdan to‘pni ikki qўllab qabul qilish, uzatish texnikasini baholashda konsentrik nishonlardan foydalaniladi. Hujum zarbasini berishda yetarli tayyorgarlik mavjud bo‘lganda, o‘yinchining o‘zi to‘p tashlab, ko‘rsatilgan zonalar bo‘yicha zarba berish harakati baholanadi.

Ўyin sharoitida bajariladigan texnik xarakatlarning samarasi musobaqa sharoitida butunlay boshqacha bўladi. Shuning uchun musobaqa sharoitida bajariladigan harakatlarni nazorat qilish va baholashda turli usullardan foydalaniladi. Ekspert bahosi, video yozuvlar va boshqalar shular jumlasidandir.

**Kalit so`zlar:** texnik-taktik mahorat, texnik-taktik tayyorgarlik, ўyinning asosiy harakatlari, qabul qilish, uzatish texnikasi, texnik xarakatlar, xujum zarbasi.

**Аннотация**

Техническая и тактическая подготовка занимающихся определяется степеню подчиненности основных действий игроков. Два вопроса.при отсенке техники передачи исползуются комбинированный прием мяча сверху и снизу, консентрические мишени. При достаточной подготовке к нанесению атакующего удара игрок сам бросает мяч, и резултат удара отсенивается в соответствии с указанными зонами. Эффект от технических мероприятий, проведенных в условиях соревнований, был совершенно иным в условиях соревнований. Поэтому при контроле и отсенке действий, выполняемых в условиях соревнований, исползуются различные методы. В том числе экспертная отсенка, видеозапис и т.д.

**Ключевые слова:** технико-тактическое мастерство, технико-тактическая подготовка, основные движения игры, приемы, приемы передачи, технические действия, атакующий удар.

Shug‘ullanuvchilarning texnik-taktik tayyorgarligi ўyinning asosiy harakatlarini ўzlashtirganlik darajasi bilan belgilanadi.

Yuqoridan va pastdan to‘pni ikki qўllab qabul qilish, uzatish texnikasini baholashda konsentrik nishonlardan foydalaniladi. Yuqoridan ikki qўllab tўp

uzatishda devorgacha bўlgan masofa 2,5 m, pastdan tўpni qabul qilishda – 3 m. 10 uzatishda tўplangan ochkolar va tўpni yўqotish hisoblab boriladi.

Tўpni ўyinga kiritish texnik-taktik malakalar aniqlik va tўpning uchish tezligi bilan tavsiflanadi. Tўpni odatda 1, 6, 5 zonalarga tushirish talab etiladi va har bir zonaga aniq ravishda tўp tushirish uchun 6 urinish beriladi. Hujum zarbasini berish kўnikma va malakasini baholashda 3 zonadan uzatilgan tўpga 4 va 2 zonalardan zarba berish qўllaniladi. Ўrgatishning dastlabki bosqichida maydon bўylab berilgan zarba texnikasi baholanadi. Zarur sharoitlarda hujum zarbasini belgilangan zonalar bўyicha berish qўllanilishi mumkin, bunda hujum zarbasi uchun uzatilayotgan tўplar barqaror bўlishi zarur. Yuqorida keltirilgan nazorat mashqlaridan tashqari ўyin sharoitida uchraydigan quyidagi mashqlardan foydalansa bўladi. Masalan, bog‘lovchi ўyinchining aniq tўp uzata bilish darajasi quyidagi mashq yordamida aniqlanadi. Ўyinchi quyidagi tartibda tўp uzatishni bajaradi: bosh ustiga tўp uzatish, nishon tomon tўp uzatish (aniqlik hisobga olinadi), burilish, 1-1,5 m balandlikda bosh ustida tўp uzatish, 180° burilish, bosh orqasidan nishon tomon tўp uzatish va hokazo. 10 ta tўp uzatishdagi ochkolar va tўpni yўqotish hisobga olinadi.

Hujum zarbasini berishda yetarli tayyorgarlik mavjud bo‘lganda, o‘yinchining o‘zi to‘p tashlab, ko‘rsatilgan zonalar bo‘yicha zarba berish harakati baholanadi. Bu mashqning ijobiy jihati shundaki, zarba berish natijasi to‘pni uzatuvchi o‘yinchining to‘p uzatishiga bog‘liq bo‘lmaydi. Odatda, hujum zarbasi bir-ikki qadam qilib bajariladi. To‘rga tegish, o‘rta chiziqdan o‘tib ketish hato urinish hisoblanadi. To‘siq qo‘yishni ob’ektiv ravishda baholash hozirgi kungacha aniqlanmagan. Ushbu texnik usulni baholashda “To‘r ustidagi to‘p” qurilmasidan foydalaniladi. Bunda turli balandlik va masofada o‘rnatilgan to‘pga to‘siq qo‘yishda qo‘l kaftini to‘r ustidan o‘tkazib bajarilgan harakat baholanadi. Bundan tashqari, bir xil ko‘rsatkichga ega bo‘lgan (yoki unga yaqin) o‘yinchilarning hujum zarbasini berishi va unga to‘siq qo‘yishda ko‘rsatilgan natija hisobga olinishi bilan baholanadi.

O‘yin sharoitida bajariladigan texnik xarakatlarning samarasi musobaqa sharoitida butunlay boshqacha bўladi. Shuning uchun musobaqa sharoitida bajariladigan harakatlarni nazorat qilish va baholashda turli usullardan foydalaniladi. Ekspert bahosi, video yozuvlar va boshqalar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, eng maqbul usullurdan biri ўyinchilar faoliyatini maxsus shartli – kodlashtirilgan yozuvlar bilan hisobga olib borish sanaladi.

Bunda ўyinchi tomonidan amalga oshirilgan asosiy ўyin harakatlarining kўrsatkichi avvaldan tayyorlab qўyilgan dastur yordamida yozib boriladi.

**Ko’rsatkichlarni hisobga olib borish usuli.**

Tўpni ўyinga kiritish: yutqizilgan (0); yutilgan (+); qabul qilingan tўpni bog‘lovchi ўyinchi pastdan qabul qilishga majbur bo‘lsa, qiyinlashtirilgan (v).

Ўyinga kiritilgan to‘pni qabul qilish: hujum zonasiga yoki bog‘lovchi turgan zonaga to‘pni yetkazib berish (+); qabul qila olmaslik (-); to‘pni qiyin qabul qilish (v).

Hujum zarbasi uchun to‘p uzatish: to‘siqsiz yoki bitta to‘siqqa qarshi bo‘lgan hujumga to‘p uzatish (+); yaqqol sifatsiz yoki xato bo‘lgan to‘p uzatish (0); ikkitalik to‘siqqa qarshi bo‘lgan hujumga to‘p uzatish (v). Bularda faqat ikki qo‘llab yuqoridan to‘p uzatish harakatlari hisobga olinadi.

Hujum zarbasini, shu jumladan, to‘siqdan qaytgan to‘pni qabul qilish: to‘pni qabul qilish (+), hato (0). Hujum zarbalari: yutilgan to‘p (+); yutqizilgan (0); to‘p o‘yinda qolsa (v).

To‘siq qo‘yish: to‘siqda yutilgan to‘p (+); to‘p yutqizilsa (0); to‘siqdan so‘ng to‘p o‘yinda qolsa (v).

Ko‘rsatilgan natijalar bo‘yicha o‘yin faoliyatining quyidagi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish imkoniyati mavjud bo‘ladi:

a) musobaqa faoliyatining hajmi;

b) alohida o‘yin faoliyati hajmi;

v) alohida o‘yin usullarining o‘yin natijasiga ta’siri;

g) yakka tartibdagi o‘yin faoliyatining samarasi;

d) guruh va jamoa faoliyatining samarasi.

Ko‘rsatilgan natijalarni aniqlashda ikki xil usuldan foydalanish mumkin. Birinchi usulda barcha ko‘rsatilgan natijalarga nisbatan har bir ko‘rsatilgan natija hisoblab chiqiladi. Masalan, berilgan 50 ta hujum zarbasidan yutildi - 30 ta (60%); yutqizildi - 10 tasi (20%); o‘yinda qoldi - 10 ta (20%).

Ikkinchi usulda esa har bir qo‘llanilgan harakat natijasi ballar bilan baholanadi va maksimal natijaga nisbat qilib olinadi. Masalan, yutilgan hujum zarbasi (1 ball), yutqizilgan (0 ball), o‘yinda qolgan to‘p uchun (0,5 ball) beriladi. Ko‘rsatilgan natijalar formulaga solinadi va bunda quyidagi ko‘rinishdagi natijaga ega bo‘lamiz.

$$\frac{30+5+0}{50}\times 100\% = 70\%$$

**ADABIYOTLAR:**

Умарова, З., Рахматуллаев, И., & Атаджанов, А. (2023). В системе высшего образования инновационные технологии. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(22), 11-16.

2. Умарова, З.У., и Кызы Юлдашалиева, Новая Зеландия (ноябрь 2023 г.). Инновационные технологии, обеспечивающие знания студентов в системе высшего образования. В международной научной конференции «инновационные направления в науке, практике и образовании» (т. 2, № 9, стр. 68-73).

3.Madina, Ahmadjonova, Usmonova Zebo, and Xudoynazarova Gullola. "Harakatli o ‘yin orqali boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilarida harakat sifatlarni takomillashtirish." Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 1.2 (2023): 618-622.

4.Mirxojidinovna, Xudaynazarova Gullola. "JISMONIY TARBIYA DARSLARINI PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASTERI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI (Umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)." Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. Vol. 2. No. 11. 2023.

5.Ravshan ogli, Tolibjonov Sardorbek. "HARAKATLI O ‘YIN ORQALI BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH." Journal of new century innovations 38.2 (2023): 138-141.

6.Sultonov, Usmon Ibragimovich. "METHOD OF CONTROLLING THE TRAINING PROCESS OF LONG-DISTANCE RUNNERS." Eurasian Journal of Academic Research 2.3 (2022): 132-137.

7.Ibragimovich, Sultonov Usmon. "DYNAMICS OF MORPHOLOGICAL INDICATORS IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF LONG-DISTANCE RUNNING." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.01 (2022): 129-132.

8. Ортиқов, М., et al. "БИАТЛОНЧИЛАРНИМУСОБАҚАЛАРГА ТАЙЁРЛАШДА МАШҒУЛОТЮКЛАМАЛАРИ ВОСИТАЛАРИНИНГОПТИМАЛАЛШТИРИШ." Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) 1.4 (2021): 156-163.

9.Ibragimovich, Sultanov Usmon. "DYNAMICS OF FORMATION OF PHYSICAL DEVELOPMENT AND PHYSICAL TRAINING OF LONG DISTANCE RUNNERS." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.6 (2019

10.Хамрақулов, Тулқин Тохирович. "РАЗВИТИЕ СИЛОВОЙ ВЫНОСЛИВОСТИ У СТУДЕНТОВ." INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE 2.7 (2023): 255-261.

11.Toxirjonovich, Xamraqulov To’lqin. "ANALYSIS OF ISSUES OF LEGAL ACTION FOR VIOLATION OF AGREEMENTS WITH ATHLETES IN UZBEKISTAN AND FOREIGN COUNTRIES." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 175-178.